



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi.*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-fevral holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 43 224 tani (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 37 150 ta) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar, yillar kesimida  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda.)





## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


2024-yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda 77 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 23 taga, oilaviy korxonalar 41 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	154	1,3 %	Bulung‘ur t.	21	1,1 %
Samarqand t.	72	2,1 %	Ishtixon t.	21	1,0 %
Pastdarg‘om t.	55	1,7 %	Kattaqo‘rg‘on sh.	19	1,3 %
Payariq t.	29	1,3 %	Kattaqo‘rg‘on t.	19	0,9 %
Toyloq t.	26	1,3 %	Narpay t.	18	1,2 %
Urgut t.	23	0,7 %	Qo‘shrabot t.	16	1,3 %
Jomboy t.	22	1,2 %	Nurobod t.	14	1,0 %
Oqdaryo t.	21	1,1 %	Paxtachi t.	11	0,8 %

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar savdo sohasida 16 152 tani, sanoatda 6 065 tani, yashash va ovqatlanishda 3 356 tani, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 782 tani, qurilishda 2 535 tani tashkil etmoqda.

## Hududlar kesimida



Samarqand sh.	12 151	Oqdaryo t.	1 890
Samarqand t.	3 487	Bulung'ur t.	1 879
Urgut t.	3 430	Jomboy t.	1 811
Pastdarg'om t.	3 238	Narpay t.	1 548
Kattaqo'rg'on t.	2 188	Kattaqo'rg'on sh.	1 458
Payariq t.	2 168	Nurobod t.	1 384
Ishtixon t.	2 127	Paxtachi t.	1 305
Toyloq t.	1 974	Qo'shrabot t.	1 186

2024-yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 532 tani tashkil etdi.



## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	152	1,4 %	Bulung'ur t.	20	1,2 %
Samarqand t.	72	2,3 %	Ishtixon t.	20	1,1 %
Pastdarg'om t.	54	1,9 %	Kattaqo'rg'on sh.	19	1,5 %
Payariq t.	29	1,6 %	Kattaqo'rg'on t.	18	1,0 %
Toyloq t.	25	1,5 %	Narpay t.	18	1,4 %
Urgut t.	22	0,8 %	Qo'shrabot t.	16	1,7 %
Oqdaryo t.	21	1,3 %	Nurobod t.	14	1,2 %
Jomboy t.	21	1,3 %	Paxtachi t.	11	1,0 %

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-fevral holatiga 37 347 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,7 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagi tartibda taqsimlanmoqda: savdo – 43,2 foiz, sanoat – 16,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,4 foiz, qurilish – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 2,7 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,8 foiz va boshqa turlari – 10,5 foiz.

## Hududlar kesimida



Samarqand sh.	10 746	Oqdaryo t.	1 650
Samarqand t.	3 193	Bulung'ur t.	1 614
Urgut t.	2 894	Jomboy t.	1 576
Pastdarg'om t.	2 779	Kattaqo'rg'on sh.	1 279
Kattaqo'rg'on t.	1 839	Narpay t.	1 263
Ishtixon t.	1 825	Nurobod t.	1 152
Payariq t.	1 821	Paxtachi t.	1 066
Toyloq t.	1 707	Qo'shrabot t.	943

2024-yil yanvar oyida, birlikda

## Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "Sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar oyida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 454 tadan 532 taga (o'sish 78 taga) yetdi.



## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	152	1,4 %	Bulung'ur t.	20	1,2 %
Samarqand t.	72	2,3 %	Ishtixon t.	20	1,1 %
Pastdarg'om t.	54	2,0 %	Kattaqo'rg'on sh.	19	1,5 %
Payariq t.	29	1,6 %	Kattaqo'rg'on t.	18	1,0 %
Toyloq t.	25	1,5 %	Narpay t.	18	1,4 %
Urgut t.	22	0,8 %	Qo'shrabot t.	16	1,7 %
Oqdaryo t.	21	1,3 %	Nurobod t.	14	1,2 %
Jomboy t.	21	1,3 %	Paxtachi t.	11	1,0 %

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda. Kichik biznes subyektlarining asosiy qismi Samarqand shahrida (28,6 foiz), Samarqand tumani (8,5 foiz), Urgut (7,8 foiz) va Pastdarg'om (7,5 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlarining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	10 652	Oqdaryo t.	1 644
Samarqand t.	3 174	Bulung'ur t.	1 609
Urgut t.	2 883	Jomboy t.	1 568
Pastdarg'om t.	2 768	Kattaqo'rg'on sh.	1 274
Kattaqo'rg'on t.	1 831	Narpay t.	1 260
Ishtixon t.	1 821	Nurobod t.	1 148
Payariq t.	1 815	Paxtachi t.	1 060
Toyloq t.	1 701	Qo'shrabot t.	942




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Nurobod t.	360
Pastdarg‘om t.	327
Samarqand t.	317
Kattaqo‘rg‘on t.	277
Bulung‘ur t.	196
Oqdaryo t.	180
Urgut t.	178
Payariq t.	138
Jomboy t.	124
Ishtixon t.	123
Samarqand sh.	119
Qo‘shrabot t.	113
Paxtachi t.	108
Narpay t.	102
Toyloq t.	70
Kattaqo‘rg‘on sh.	50



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


## Baliq ovlash va akvakultura



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 223
Urgut t.	822
Samarqand t.	629
Pastdarg'om t.	458
Ishtixon t.	347
Kattaqo'rg'on t.	328
Jomboy t.	300
Toyloq t.	299
Oqdaryo t.	259
Bulung'ur t.	257
Kattaqo'rg'on sh.	245
Payariq t.	231
Paxtachi t.	191
Narpay t.	178
Qo'shrabot t.	161
Nurobod t.	137



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'zgarish sur'ati 74,5 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan, – 95,0 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,6 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	819
Payariq t.	215
Pastdarg'om t.	197
Urgut t.	161
Samarqand t.	148
Oqdaryo t.	123
Toyloq t.	119
Kattaqo'rg'on t.	116
Kattaqo'rg'on sh.	112
Jomboy t.	111
Ishtixon t.	94
Narpay t.	70
Paxtachi t.	69
Qo'shrabot t.	66
Bulung'ur t.	59
Nurobod t.	56



Voliyatda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida hisoblangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, jami qurilish korxonalariga nisbatan:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 59,8 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,8 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 24,4 foizni tashkil etadi.

402



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

618

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

1 515


Bino va  
inshootlar qurish



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	4 467
Samarqand t.	1 386
Pastdarg'om t.	1 312
Urgut t.	1 087
Ishtixon t.	862
Payariq t.	853
Bulung'ur t.	771
Toyloq t.	763
Oqdaryo t.	740
Kattaqo'rg'on t.	740
Jomboy t.	671
Narpay t.	666
Kattaqo'rg'on sh.	552
Paxtachi t.	517
Qo'shrabot t.	434
Nurobod t.	331



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 112 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasi ulushi 71,7 foiz;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasi 18,1 foiz;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash 10,2 foizini tashkil etadi.

1 651

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 914

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


11 587

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	1 319
Samarqand t.	265
Urgut t.	209
Pastdarg'om t.	171
Payariq t.	161
Toyloq t.	153
Kattaqo'rg'on t.	151
Jomboy t.	141
Ishtixon t.	131
Oqdaryo t.	126
Bulung'ur t.	118
Kattaqo'rg'on sh.	115
Narpay t.	109
Nurobod t.	72
Qo'shrabot t.	68
Paxtachi t.	47



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 356 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,6 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,4 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.

422

Yashash bo'yicha xizmatlar



2 934


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	309
Urgut t.	51
Payariq t.	48
Oqdaryo t.	37
Kattaqo'rg'on sh.	35
Samarqand t.	33
Ishtixon t.	32
Pastdarg'om t.	24
Kattaqo'rg'on t.	19
Toyloq t.	19
Bulung'ur t.	18
Jomboy t.	13
Qo'shrabot t.	11
Narpay t.	11
Paxtachi t.	5
Nurobod t.	5



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, aloqa yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 39,1 foizini tashkil etdi.


Shuningdek, axborot xizmati ko'rsatish sohasi 12,1 foizini, kompyuter dasturlashtirish maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar 35,1 foizini, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish 1,6 foizini, nashirlik faoliyati 11,2 foizini hamda dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish faoliyati bo'yicha 0,9 foizini tashkil etdi.



2024-yil 1-fevral holatiga koʻra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	412
Samarqand t.	68
Toyloq t.	65
Urgut t.	61
Payariq t.	47
Nurobod t.	47
Pastdargʻom t.	46
Oqdaryo t.	45
Ishtixon t.	45
Kattaqoʻrgʻon sh.	42
Jomboy t.	40
Bulungʻur t.	26
Kattaqoʻrgʻon t.	26
Narpay t.	23
Paxtachi t.	17
Qoʻshrabot t.	13



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 917 tasi yoki 89,6 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlillar shuni koʻrsatmoqdaki:

-97,3 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2023-yilning mos davriga nisbatan 97,6 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni, oʻsish surʼati 116,6 foizni tashkil etdi;

-yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini, oʻsish surʼati 87,5 foizni tashkil etdi.

7

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

21




995

Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	386
Samarqand t.	88
Toyloq t.	85
Urgut t.	80
Pastdarg'om t.	62
Jomboy t.	58
Bulung'ur t.	37
Ishtixon t.	34
Oqdaryo t.	31
Narpay t.	30
Kattaqo'rg'on t.	28
Payariq t.	28
Kattaqo'rg'on sh.	23
Paxtachi t.	22
Qo'shrabot t.	15
Nurobod t.	15



2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

-quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 82,6 foizni tashkil etdi;

-ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 86,3 foizni;

-pochta va kuryerlik yo'nalishi 81,1 foizni tashkil etdi.


Havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 5,0 foizga oshgan.





### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024-yil 1-fevral holatiga ko‘ra, birlikda



**Tashkiliy-huquqiy shakl** – subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;


-idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024-yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	108	1,4 %	Payariq t.	16	1,5 %
Samarqand t.	50	2,5 %	Jomboy t.	13	1,5 %
Pastdarg'om t.	23	1,7 %	Kattaqo'rg'on t.	13	1,2 %
Kattaqo'rg'on sh.	19	1,9 %	Nurobod t.	12	1,3 %
Urgut t.	19	1,0 %	Narpay t.	11	2,6 %
Oqdaryo t.	17	1,7 %	Toyloq t.	11	1,4 %
Bulung'ur t.	16	1,5 %	Ishtixon t.	8	1,0 %
Qo'shrabot t.	16	2,4 %	Paxtachi t.	8	1,4 %


2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 37 347 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 23 456 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi va tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkin, mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	7 994	Kattaqo'rg'on sh.	1 017
Samarqand t.	2 002	Nurobod t.	946
Urgut t.	1 815	Jomboy t.	876
Pastdarg'om t.	1 385	Toyloq t.	810
Kattaqo'rg'on t.	1 082	Ishtixon t.	765
Bulung'ur t.	1 037	Qo'shrabot t.	671
Payariq t.	1 036	Paxtachi t.	565
Oqdaryo t.	1 024	Narpay t.	431

2024-yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Hududlar kesimida

Samarqand sh.	14	1,7 %	Jomboy t.	2	0,8 %
Pastdarg'om t.	10	1,9 %	Kattaqo'rg'on t.	2	0,9 %
Samarqand t.	10	3,7 %	Narpay t.	2	0,4 %
Toyloq t.	9	2,1 %	Urgut t.	2	0,3 %
Ishtixon t.	6	1,0 %	Oqdaryo t.	1	0,3 %
Bulung'ur t.	2	1,0 %			

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,4 foizni tashkil etgan.


Xususiy korxonalar sonining eng ko'p ulushi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Samarqand shahrida – 812 ta, Urgut tumani – 636, Ishtixon – 599, Pastdarg'om -536 va Narpay tumani– 499 tani tashkil etmoqda.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	812	Samarqand t.	271
Urgut t.	636	Jomboy t.	261
Ishtixon t.	599	Kattaqo'rg'on t.	232
Pastdarg'om t.	536	Bulung'ur t.	198
Narpay t.	499	Nurobod t.	141
Toyloq t.	422	Kattaqo'rg'on sh.	124
Paxtachi t.	357	Qo'shrabot t.	120
Oqdaryo t.	301	Payariq t.	101

2024-yil yanvar oyida, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati, foizda


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Boshqa turlar



Savdo

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Axborot va aloqa



Yashash va ovqatlanish

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


### Hududlar kesimida

Samarqand sh.	30	1,6 %	Toyloq t.	5	1,1 %
Pastdarg'om t.	21	2,5 %	Oqdaryo t.	3	1,0 %
Payariq t.	12	1,8 %	Kattaqo'rg'on t.	3	0,6 %
Samarqand t.	12	1,3 %	Paxtachi t.	3	2,3 %
Jomboy t.	6	1,4 %	Bulung'ur t.	2	0,6 %
Ishtixon t.	6	1,4 %	Nurobod t.	2	3,9 %
Narpay t.	5	1,6 %	Urgut t.	1	0,2 %


2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 80,1 foizni tashkil etgan.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 122,4 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Samarqand sh.	1 872	Urgut t.	414
Samarqand t.	905	Bulung'ur t.	359
Pastdarg'om t.	829	Oqdaryo t.	313
Payariq t.	653	Narpay t.	311
Kattaqo'rg'on t.	492	Kattaqo'rg'on sh.	131
Toyloq t.	470	Paxtachi t.	131
Ishtixon t.	430	Qo'shrabot t.	105
Jomboy t.	423	Nurobod t.	51

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


2024-yil yanvar oyida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko‘rsatayotganlarga nisbati, foizda




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Chet el investitsiya ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

### Hududlar kesimida

Samarqand sh.	9	3,3%
Samarqand t.	3	9,1%
Qo‘shrabot t.	2	9,5%
Bulung‘ur t.	1	5,6%


Kattaqo‘rg‘on t.	1	7,1%
Pastdarg‘om t.	1	3,8%
Paxtachi t.	1	10,0%
Urgut t.	1	2,3%




2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 9,4 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 106 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallab viloyatda chet el investitsiya ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,8 foizini tashkil etmoqda. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 17,3 foiz) va Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 15,4 foiz) davlatlari ham yetakchi o'rinlarni egallab kelishmoqda.

## Hududlar kesimida

Samarqand sh.	271	Kattaqo'rg'on sh.	15
Urgut t.	44	Ishtixon t.	15
Samarqand t.	33	Kattaqo'rg'on t.	14
Jomboy t.	31	Payariq t.	13
Oqdaryo t.	28	Nurobod t.	12
Pastdarg'om t.	26	Paxtachi t.	10
Qo'shrabot t.	21	Toyloq t.	10
Bulung'ur t.	18	Narpay t.	4

2024-yil yanvar oyida , birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 304 tasi qo'shma korxonalar, 261 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda


## Xorijiy korxonalar

## Qo'shma korxonalar

151	Samarqand sh.	120
4	Kattaqo'rg'on sh.	11
15	Oqdaryo t.	13
9	Bulung'ur t.	9
11	Jomboy t.	20
5	Ishtixon t.	10
5	Kattaqo'rg'on t.	9
14	Qo'shrabot t.	7
1	Narpay t.	3
8	Payariq t.	5
7	Pastdarg'om t.	19
3	Paxtachi t.	7
12	Samarqand t.	21
4	Nurobod t.	8
9	Urgut t.	35
3	Toyloq t.	7

2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda

## Xorijiy korxonalar




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Qurilish



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar


## Qo'shma korxonalar



Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida jadal o'sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liqdir.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Samarqand viloyat statistika  
boshqarmasi statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: 66-235-14-42